



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

ECHKILARNING TURLI DAVRLARIDAGI SUT MAHSULDORLIGI

Toreshova A.U., Ajimuratov A.P.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Echki suti yuqori ozuqa qiymatiga ega bo'lgan qimmatli xomashyo hisoblanadi. Uning tarkibida oqsillar, yog'lar va mineral moddalar nisbati muvozanatli bo'lib, inson organizmi tomonidan oson hazm qilinadi. Shu sababli, oxirgi yillarda echki sutidan tayyorlangan mahsulotlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Echki sutini qayta ishlash texnologiyasida asosiy maqsad mahsulotning tabiiy xususiyatlarini saqlagan holda uning saqlanish muddatini uzaytirish va yangi, iste'molchi talabiga mos mahsulotlar turini yaratishdan iborat. Sutning foydali xususiyatlarini o'rganishga Rossiyaning buyuk fiziologi I. P. Pavlov va rus olimi S. P. Botkin katta hissa qo'shdilar birinchi marta sut yurak va buyrak kasalliklarini davolash uchun qimmatbaho mahsulot ekanligini eksperimental ravishda isbotlaganlar.

Materiallar va metodlar. Tajribadagi echki suti mahsuldorligi va sifatini I. A. Bocharov metodikasi bo'yicha aniqlandi. Metodikaning afzalliklari: echki sut mahsuldorligini energetik va oziqaviy jihatdan baholaydi, faqat sut miqdoriga emas, sifat komponentlariga ham e'tibor qaratiladi, har turli zotlar va sharoitlar uchun qiyosiy tahlil o'tkazish imkonini beradi va seleksiyada yuqori sifatli sut beradigan echkilarni tanlashga yordam beradi.

Natijalar va ularning tahlillari. Hozirgi paytda O'zbekistonda yaylovda boqish sharoitida echkilarni saqlashning ikkita texnologiyasidan foydalanishadi, birinchisi uloqchalarni 4,0 – 4,5 oylikka qadar butun sut bilan oziqlanish davrida bevosita onasi yonida boqish va og'iz suti davridan keyin ertalab uloqlar onasidan ajratiladi va kechqurun emdirish uchun ular yana onasi yoniga qo'yiladigan ajratish – emdirish usuli, bu ona echkilar yaxshiroq o'tlashi va alohida ajratilgan yaylovlardan foydalanishi uchun va uloqlar quvvatlanganga qadar va yaylovlarda onalari bilan birga tenglikda harakatlanishiga qadar shu tarzda 2 oylik davomida boqiladi.

Shu munosabat bilan bizning oldimizga hayvonlarning fiziologik maqomga muvoffiqligi va ishlab chiqarish amaliyotlarini ona echkilar biologik xususiyatlari bilan oqilona birlashtirish maqsadida uloqlarni turli texnologiyalarda o'stirilishini qiyosiy tahlilini o'tkazish vazifasi qo'yildi. Buning uchun 2020-yil uloqlash muddatining mart oyida har birida 15 bosh bo'lgan ona echki va uloqlar bo'lgan uchta bir xil guruh tuzildi.

Birinchi guruh nazorat guruhi bo'lib xizmat qildi va uloqlar butun sut bilan oziqlanish davrida onalari yonida bo'lishdi va ularning sutidan to'ygunicha oziqlandi, echkilar shu bilan birga dastlabki ikki oy uloqlagan maydon atrofida boqildi.

Ikkinchi va uchunchi guruhlar tajriba guruhi, bunda bir haftalik uloqlar ertalab onalaridan ajratildi va yaylovdan qaytish vaqtiga qarab kechki payt onalari yoniga qo'yildi. Shu tarzda 2 oylikka qadar davom etdi. Keyinchalik uloqlar onalari bilan birga o'stirildi. 30 kunlik bo'lgan kundan boshlab, uloqlarga kunduzi 30 kg maydalangan yaylov xashagi berildi. Ushbu texnologiyadan foydalanish echiklarni uloqlarsiz uzoq yaylovlarda o'tlatish va shu tarzda ularni ko'proq oziqlantirish imkonini berdi va ko'p sut hosil bo'lishiga va mos ravishda uloqlarning o'sish sur'atini oshirishga yordam berdi. Yomg'ir yog'gan kunlari uloqlar qo'rada, boshqa kunlar ochiq bostirmada saqlandi.

Quyidagi 1-jadvalda turli zot echkilarning laktatsiya davridagi sut miqdori ma'lumotlari keltirilgan bo'lib yoz va qish mavsumida laktasiya davrlarini taqqoslab o'rgandik. Shularni hisobga olib, tajriba guruhlaridagi echkilarning sut mahsuldorligini o'rgandik, uning natijalari 1-jadvalda keltiriladi.

**Tajriba guruhlaridagi echkilarning qish davrida
sut mahsuldorligi (n=15)**

Guruhlar	Sut miqdori, kg		Sutdagi yog', %	
	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %
I guruh	99,4 ± 3,5	25,3	4,95 ± 0,16	7,8
II guruh	375,8 ± 13,0***	30,1	4,5 ± 0,15	8,6
III guruh	328,6 ± 12,4***	32,6	4,91 ± 0,27	13,6

Eslatma: ***P>0,999

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, II guruhdagi Zaanen zotli echkilarning qish davrida o'rtacha sut miqdori 375,8 kg tashkil etib, I guruhdagi mahalliy echkilarning sut miqdoriga nisbatan 276,4 kg (P>0,999) yuqori bo'ldi. Shuningdek, qish davrida III guruhdagi mursia-granada zotli echkilarning sut miqdori esa 328,6 kg tashkil etib, I guruhdagi tengqurlarnikiga nisbatan 229,2 kg (P>0,999) yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Shuni alohida qayd etish kerakki I echkilarning qish davrida sutdagi yog'i 4,95% tashkil etib, II va III guruhlardagi tengqurlarnikiga nisbatan tegishli ravishda 0,45% va 0,04%ga yuqori bo'ldi.

Xoritonov yozishicha echki sutining tarkibiga ko'p omillar ta'sir ko'rsatar ekan, jumladan hayvon zoti, laktatsiya davri, sog'ligi, hayvonning oziqlanish va saqlash sharoiti, yil fasllari va boshqalar. Olib brogan tadqiqotlarida Toggenburg va Chexiya zotli echkilar suti tarkibi oqsil, yog' va quruq moddaga boy ekanligi bilan ajralgan. Gorkiy, Nubiy, Chexiya, Toggenburg va Zaanen zotli echkilar sutini tekshirishni davom ettirib, bu zot echkilar suti pishloq ishlab chiqarishga loyiq mahsulot ekanligi xulosasiga kelgan va pishloq ishlab chiqarilishida turli tur pishloqlar ishlab chiqarilishiga echki suti tarkibidan kelib chiqib, ishlab chiqarishning turlicha texnologiyalarni qo'llash kerakligi taklifini kiritgan.

Bizning tajribamizda echkilarning yoz davrida sut mahsuldorligi qish davriga nisbatan birmuncha kam bo'lganligi (2-jadval) kuzatildi.

**Tajriba guruhlaridagi echkilarning yoz davrida
sut mahsuldorligi (n=15)**

Guruhlar	Sut miqdori, kg		Sutdagi yog', %	
	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %	$\bar{X} \pm S_{\bar{x}}$	Cv, %
I guruh	105,2 ± 3,37	25,7	4,85 ± 0,13	6,8
II guruh	341,5 ± 12,6***	30,6	4,2 ± 0,07	4,28
III guruh	303,9 ± 11,4 ***	32,0	4,9 ± 0,23	11,8

Eslatma: ***P>0,999

2-jadvaldan ko'rinishicha, II guruhdagi zaanen zotli echkilarning sut miqdori 341,5 kg tashkil etib, I va III guruhlardagi tengqurlarnikiga nisbatan tegishli ravishda 236,3 (P>0,999) va 37,6 kg yuqori bo'lganligi aniqlandi. Shuningdek, III guruhdagi mursia-granada zotli echkilarning yoz davridagi sut miqdori 303,9 kg tashkil etib, I guruhdagi mahalliy echkilarning sut miqdoriga nisbatan 198,7 kg (P>0,999) yuqori bo'ldi.

Sut tarkibidagi yog' bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar bilan III guruhlardagi mursia-granada zotli echkilar erishdilar, ularning sutdagi yog' darajasi 4,9% ni tashkil etib, I va II guruhdagi tengqurlarnikiga nisbatan tegishli ravishda 0,05% va 0,7% yuqori bo'ldi.

Xulosalar. Tadqiqotlarda zaanen zotli echkilarning laktatsiya davomidagi sut miqdori 717,3 kg teng bo'lib, mahalliy echkilarning sut mahsuldorligiga nisbatan 512,7 kg va mursia-granada zotli echkilarning sut mahsuldorligiga nisbatan esa 84,8 kg yuqori bo'lganligi aniqlandi. Bu natijalar, sut mahsuldorligi bo'yicha zaanen zotli echkilar irsiy imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Торешова А.У.. Шимолий Қорақалпоғистон худудида ҳар хил сақлаш шароитида эчкиларнинг маҳсулдорлик хусусиятлари. Диссер.к.х.ф.ф.д. (PhD) Самарқанд-2019 йил. 114-б.
2. Хоритонов, Д.В., Будрик В.Г. Качество молочной продукции как основа здоровьеснации / Молочная промышленность. 2017. № 6. С.36-37.
3. Рахимов, М. А., Турдалиев, А. Т., & Мадрахимов, Ш. Н. (2022). ПРОИЗВОДСТВО ПОЛНОЦЕННОГО МЯСА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПОРОДНЫХ РЕСУРСОВ. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ ПРОДУКТИВНОГО И НЕПРОДУКТИВНОГО ЖИВОТНОВОДСТВА* (pp. 184-189).
4. Жавхаров, О. З., Мадрахимов, Ш. Н., & Собиров, И. А. (2024). СОСТОЯНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ КОНЕВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния*, (2), 282-287.
5. Базарон, Б. З., Шкуратова, Г. М., & Дашинимаев, С. М. (2018). Биохимические показатели крови лошадей забайкальской породы. *Ветеринария*, (7), 53-56.
6. Мадрахимов, Ш. Н., & Худайберганова, Х. (2024). Характеристики покрытия кормов живой массой быков породы монбельярд разных генотипов. In *Актуальные проблемы, перспективные планы и инновационные решения в селекции, семеноводстве и агротехнологиях сельскохозяйственных культур: материалы Международной научно-практической конференции, 26 сентября 2024 г* (p. 388).
7. Мадрахимов, Ш. Н., Мамадов, Ф. Қ., & Гулбутаев, Б. Х. (2024). Турли селекцияга мансуб голштин зотли сигирларнинг сут маҳсулдорлиги. *Science and innovation*, 3(Special Issue 40), 255-257.
8. Мадрахимов, Ш. Н. (2024). Сут-гўшт йўналишидаги қорамол зотлар маҳсулдорлигини оширишнинг селекцион-технологик асослари. *Автореферат. Қишлоқ хўжалиги фанлари доктори*, 72.
9. Мадрахимов, Ш. Н., & Рузибоев, Н. Р. (2022). Саноат асосида чатиштиришдан олинган F1 дурагай авлодларининг усиш курсаткичлари. *Ж. "Chorvachilik va naslchilik ishi"*, 4, 26.
10. Madrahimov, S. N. (2023). The effect of feeding on the expression of the hereditary opportunities of monbelyard bulis belonging to different genotypes. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, (22), 1.
11. Madrahimov, S., & Roziboev, N. (2023). Growth and development of F1 hybrid progenies of Schwitz cows using beef breeds. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 371, p. 01003). EDP Sciences.